

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o'rtta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi

Amaliy xay'at raisi

A.P. Xakamova



«12» dekabr 2025 y.

« TASDIQLAYMAN»

Respublika o'rtta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi

direktori

L.X. Musadjanova



«12» dekabr 2025y.

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

Laboratoriya laboranti

(sikli bo'yicha ixtisoslashtirish guruhlariga uchun)

O'QUV DASTURI

(288-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

L.X.Musadjanova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi
direktori,t.f.d. professor

N.S.Ganiyeva

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi
o'qituvchisi

S.T.Mirzaqobilova

TDTU ko'p tarmoqli klinikasi
laboratoriya diagnostika
bo'limi laboranti

TAQRIZCHILAR:

Z.Z.Imamova

RO'TFXMO va IM o'quv ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari

M.X.Abdullayev

RIF va PIATM klinik va diagnostika
laboratoriya mudiri,oliy toifali
shifokor

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025 .y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama
qilindi,tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025 .y.

bayonnoma № 5

1. Kirish

Mazkur o'quv dasturi mamlakatimizda o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ularni ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik va laboratoriya ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizimni tashkil etish maqsadida yaratilgan. O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 may 2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora -tadbirlari" PQ-5117 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Laboratoriya laboranti" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasida tayyorlangan bo'lib, mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish bo'lgan laborantlarni 288 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

Tibbiyot muassasalari laboratoriyalarida ishlash uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega, zamonaviy laboratoriya uskunalaridan foydalana oladigan, biologik materiallar bilan xavfsiz ishlaydigan malakali laboratoriya laborantlarini tayyorlashdan iborat. Shuningdek, tahlil natijalarini to'g'ri baholash, tibbiy hujjatlarni yuritish va sanitariya-epidemiologik qoidalarga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish, klinik, bakteriologik va biokimyoviy laboratoriyalari laborantlarining ishining mohiyati, kasbiy majburiyatlarni amalga oshirishda mavjud standart va protokollar asosida bilimlarini hozirgi zamon talablariga mos ravishda yangilash va ularni amaliyotga joriy qilish holatida tayyorlash.

1.2. Vazifalar:

- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va meyoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- tinglovchilarga klinik laborator diagnostika asoslari bo'yicha nazariy bilim berish.
- qon, siydik va boshqa biologik materiallarni to'g'ri olish, saqlash va tashish qoidalarini o'rgatish.
- gematologik, biokimyoviy, immunologik va mikrobiologik tekshiruv usullarini o'rgatish.
- laboratoriya asbob-uskunalari va reaktivlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.
- laboratoriyada mehnat xavfsizligi, sanitariya-gigiyena va infeksiyon xavfsizlik qoidalariga amal qilishni ta'minlash.
- tahlil natijalarini qayd etish, laboratoriya hujjatlarini to'g'ri yuritishni o'rgatish.
- amaliy mashg'ulotlar orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish.
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini yangilash;
- nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash;
- tibbiyotning zamonaviy imkoniyatlaridan foydalanib, kasalliklarni erta aniqlashda, to'g'ri tashhislash va davolashni nazorat qilishda laborator diagnostika usullari ahamiyatini o'rganish;
- laborator tekshirish usullari uchun biomateriallarni to'g'ri olish, saqlash va tekshirishni o'rganish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha davolash profilaktika muassasalarining klinik va biokimyoviy laboratoriyalarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim

yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan, lekin mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish bo'lgan o'rta tibbiy xodimlari- laborantlar uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notqlik san'atining asoslarini amaliyotda qo'llay olishi;
- amaldagi meyoriy xujjatlar bilan ishlash, soha bo'yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lib, uni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- klinik, biokimyoviy, bakteriologik laboratoriya laborantlarining lavozimlik burchlarini bilishi;
- laboratoriya laborantlarining asosiy ish faoliyati, vazifalarini, mutaxassisligiga qo'yiladigan talablarni va huquqiy ma'suliyatlari bilishi;
- klinik, biokimyoviy tekshirish usullari, virusologik va parazitlar kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- umumiy klinik, biokimyoviy, gematologik va sitologik asosiy laborator tekshirish usullarini bilishi;
- laborator tekshirish turlari va yo'nalishlarini bilishi;
- tibbiy laborator asbob uskunalari bilan ishlash qonun-qoidalari va laboratoriyalarga qo'yiladigan talablarni bilishi;
- nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etgan holda bevosita bemorlar bilan o'zaro muloqot qilishi;
- bakteriologik, parazitologik va virusologik tekshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Hozirgi kunda tibbiyotda kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonida laborator diagnostika muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tibbiy laboratoriyalarda yuqori aniqlikdagi tahlillar o'tkazilishi, yangi diagnostik texnologiyalar joriy etilishi malakali laboratoriya laborantlariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Shu sababli laboratoriya laborantlarini tayyorlash, ularning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish sog'liqni saqlash tizimi uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu dastur tibbiyot muassasalari laboratoriyalarida samarali ishlay oladigan, sifatli diagnostika xizmatini ko'rsata oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Uzlüksiz kasbiy ta'lim tizimida tibbiy kadrlarni qayta tayyorlash va ixtisoslashtirish, tibbiy laboratoriyalar laborantlarining o'z sohasining yetuk mutaxassislari sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan.

1.6. Dastur hajmi: 288 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy – an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzlüksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9-00 da boshlanib, 13-40 da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat: o'quv kursini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Laboratoriya laboranti" yo'nalishi bo'yicha 288 kredit ixtisoslashtirish o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari) dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

- Tibbiy etika va deontologiya qoidalariga amal qilish.
- sog'liqni saqlash tizimida me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ish olib borish.
- laboratoriyada sanitariya-gigiyena va infeksiyon xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.
- tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritish va hisobot tayyorlash.
- jamoada ishlash va tibbiyot xodimlari bilan samarali muloqot qilish.
- Biologik materiallarni (qon, siydik, balg'am va boshqalar) to'g'ri qabul qilish, saqlash va laboratoriya tekshiruviga tayyorlash.
- klinik laborator diagnostikada qo'llaniladigan asosiy tahlil usullarini bajarish.
- gematologik, biokimyoviy, immunologik va mikrobiologik tahlillarni amalga oshirish.
- laboratoriya asbob-uskunalari va apparatlaridan to'g'ri va xavfsiz foydalanish.
- reaktivlar tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalariga amal qilish.

- tahlil natijalarini qayd etish, baholash va rasmiylashtirish.
- laboratoriyada sterillik va aseptika qoidalariga amal qilish.
- tekshiruv natijalarining aniqligi va ishonchligini ta'minlash.
- laboratoriyada ish joyini to'g'ri tashkil etish.
- favqulodda holatlarda (biologik xavf, reaktivlar bilan bog'liq holatlar) to'g'ri harakat qilish.
- hamkasblar, laborantlar va kichik tibbiy xodimlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish;
- klinik, biokimyoviy, bakteriologik laboratoriyalarning me'yoriy jihozlanishi borasida bilimlarga ega bo'ladi;
- laborator tekshiruvlarda foydalaniladigan zamonaviy tibbiy va texnik jihozlarni to'g'ri qo'llash;
- virusologiyada qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish;
- laboratoriya laboranti ishfaoliyati va lavozimlik burchlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi;
- laboratoriyalarda texnika havfsizligi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- laborator tahlillarga namunalarni to'g'ri va o'z vaqtida olish, laborator tekshiruvlarni o'tkazish va natijalarni kerakli hujjatlarga qayd qilish;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'ladi;

3.0. DASTUR MAZMUNI

3.1. "Laboratoriya laboranti" 288 kredit ixtisoslashtirish kursi dasturi o'quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy	Amaliy	
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	60	34	26	
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-	
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4	
1.3	Modul: Xorijiy til.	6	2	4	
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.	6	6	-	
1.5	Modul: Infektsion nazorat	12	8	4	
1.6	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4	
1.7	Modul: Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik.	6	2	4	
1.8	Modul: Favqulotda holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish	12	6	6	
2.0	Mutaxassislik fani modullari	222	74	148	
2.1	Modul: Laboratoriya turlari, tuzilishi, me'yoriy jihozlanishi va asbob – anjomlari. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi	12	4	8	
2.2	Modul: Qon va uning tarkibi haqida tushuncha. Gematologik tekshiruv usullari. Qonning umumiy tahlili.	42	14	28	
2.3	Modul: Umumiy klinik tekshirish usullari.	48	16	32	
2.4	Modul: Virusologiyada laborator tekshirish usullari.	18	6	12	
2.5	Modul: Teri – tanosil kasalliklarida laborator tekshirish usullari.	18	6	12	
2.6	Modul: Biokimyoviy laborator tekshirish usullari.	42	14	28	
2.7	Modul: Bakteriologiyada laborator tekshirish usullari texnikasi.	30	10	20	
2.8	Modul: Parazitologiyada laborator tekshirish usullari.	12	4	8	
3.0	Attestatsiya	6			6
	Jami:	288	108	174	6

“Laboratoriya laboranti”

288 kredit ixtisoslashtirish o‘quv modullarining mazmuni.

1.1.Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma’lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. “Tibbiyot informatikasi asoslari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;

hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o‘qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot hamshiralariga ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot sohasiga aloqadorligini tushuntirish hamda shu sohaga oid terminlarni o‘rganish. Ingliz tili alifbosidagi harflar va asosiy qo‘llaniladigan terminlar. The verb “to be”, “to have” Introducing yourself. Tana a‘zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko‘p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Tana a‘zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko‘p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Ularni og‘zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o‘rgatish va qo‘llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Ularni og‘zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o‘rgatish va qo‘llash. Berilgan qo‘llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og‘zaki nutqini rivojlantirish.

1.4. Modul. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar. Sog‘liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog‘liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo‘nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to‘liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog‘liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarori.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog‘liqni saqlash tizimidagi me‘yoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infekcion nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epidemilogiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot. Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiyada zamonaviy usullar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish va ishlash. Sterilizatsiyaning sifatini aniqlash usullari va ularni o'tkazish tartibi. Texnika xavfsizligi qoidalari va ularga amal qilish.

1.7. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'rikni tashkil etish va aholini jalb etish.

1.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni (nafas, puls, ong, AD) aniqlash. Birlamchi tekshiruv (ABC algoritmi). Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Terminal holat. Terminal holat bosqichlari. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi. Tez tibbiy yordam chaqirish tartibi. Travmalar va o'tkir holatlarda birinchi yordam ko'rsatish tamoillari. Qon ketish turlari va jgut qo'yish. Sinish, chiqish, immobilizatsiya. Shok holati. Kuyish, cho'kish sovuq va issiqlik urishi. Transportirovka qoidalari.

2.1. Modul. Laboratoriya turlari, tuzilishi, me'yoriy jihozlanishi va asbob – anjomlari. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi

Laboratoriya laboranti fanining rivojlanish tarixi, ahamiyati. Laboratoriya ishi rivojiga hissa qo'shgan olimlar. Laboratoriyalar turlari, tuzilishi, mikroskopiya, immersion sistema to'g'risida tushuncha. Klinik diagnostik va biokimyoviy laboratoriyalarining tuzilishi. Xona va ish joylariga qo'yiladigan talablar. Laboratoriyalarning zamonaviy avtomat va yarimavtomat analizatorlar bilan jihozlanishi, zamonaviy asboblarni o'rnatiladigan joyga qo'yiladigan talablar. Laboratoriyalardagi qo'llanilayotgan asosiy priborlar: mikroskop, polyarimetr, FEK, avtomatik (kompyuterli) hisoblagichlar va boshqalarning tuzilishi, qo'llash usullari. Polyarimetriya haqida tushuncha. Yorug'lik polyarizatsiyasi (qutblanishi), polyarizatsiya tekisligi, uni aylanishi. Optik aktiv moddalar og'ish (aylanish) burchagini eritma konsentratsiyasi va qavatining qalinligiga bog'liqligi. Polyarimetrdagi nurlar yuli. Fotometriya, fotoeffekt to'g'risida tushuncha, fotoelementning tuzilishi. Fotoelektrokolorimetri (FEK)ning tuzilishi va ishlash qoidasi. Tekshirilayotgan eritmani konsentratsiyasi, yorug'likni yutishi va fototok kuchlarining bog'liqligi. RN-metriya. Massalar harakati qonuni, suvni ionli hosilasi va vodorod ko'rsatkichlar to'g'risida tushuncha. Avtomatik (kompyuterli) hisoblagichlar ish usullari, prinsipial sxemasi. Elektr priborlar bilan ishlashdagi texnika xavfsizligi qoidalari. Laboratoriya sanitar epidemiologik holat va epidemiologik xavfsizlik qoidalari. Himoyalovchi ust boshlarni zararsizlantirish. Reaktivlarni xavfsiz qilib tayyorlash va saqlash. Laboratoriya xodimlari kuyganda va zaharlanganda shoshilinch va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish chora-tadbirlari.

2.2. Modul. Qon va uning tarkibi haqida tushuncha. Gematologik tekshiruv usullari. Qonning umumiy tahlili.

Qon, qonning yaratilish sxemasi, gemopoez to'g'risida tushuncha. Qonning tarkibi, shakli elementlari va ularning tuzilishi, funksiyasi, morfologiyasi va nomenklaturasi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Eritrotsitlarning meyordagi va patologiyadagi morfologiyasi. Retikulotsitlarni bo'yash, hisoblash va donadorligini aniqlash hamda ularni diagnostik ahamiyati. Eritrotsitlarni osmotik rezistentligi, immunogematologiya to'g'risida tushuncha. Leykotsitlar. Leykotsitlarning meyordagi va patologiyadagi ko'rsatkichlari, leykotsitoz va leykopeniya haqida tushuncha. Meyordagi leykotsitar formula, leykotsitar

formulani chapga va o'ngga siljishi. Leykotsitlar turlarining nisbiy va absolyut soni haqida tushuncha. Leykotsitlarning degenerativ o'zgarishlari. Leykotsitlarni Pelgerov bo'yicha tahliliy variantlari. Leykokonsentratni olish va uni tekshirishning diagnostik ahamiyati. Trombotsitlar morfologiyasi. Fazali kontrast tuzilmasidan foydalangan holda hisoblash kameralari surtmalarida trombotsitlarni sanash. Qon tarkibini yoshga bog'liq holda o'zgarishi. Qon kasalliklari, yuqumli kasalliklar, jarrohlik va boshqa nogemolitik kasalliklarda qonning tarkibi va o'zgarishlari. Yosh xujayralarni aniqlash yo'llari va uning diagnostik ahamiyati. Kamqonlik to'g'risida tushuncha. Anemiyalar klassifikatsiyasi, turlari. Leykozlar to'g'risida tushuncha, tasnifi, o'tkir va surunkali leykozlar. Leykozlarning klinik kechishining o'ziga xos xususiyatlari, qiyosiy tashhisoti. Sitoximik tekshirish uslublari yordamida differensial diagnostika o'tkazish. Leykemoid reaksiyalar haqida tushuncha. Kam belgili limfotsitoz va yuqumli mononukleoz, agronulotsitoz, nur kasalligida qon tarkibidagi o'zgarishlar. Qon ivish mexanizmi to'g'risidagi zamonaviy tasavvurlar. Qonning fibrinolitik xususiyatlari. Gemorragik diatezlar tasnifi. Qon oqishning turlari va ularning klinik-gematologik tavsifi. Nur kasalligida qon surtmalarini tekshirish. Leykoz kasalligida qon surtmasi va suyak ko'migi punktati xamdabemor qoni va suyak ko'migidan sitologik preparatlar tayyorlash. Malyariya (bezgak) haqida umumiy ma'lumot. Bezgakning etiologiyasi, epidemiologiyasi, turlari, klinik kechishi, diagnostikasi. Malyariya plazmodiyalarining rivojlanish sikli, ularning turlari. Gamontlar, shizontlar morfologiyasi va ularning alohida turlarini rivojlanish xususiyatlari.

2.3. Modul. Umumiy klinik tekshirish usullari.

Buyrak va siydik ajratish tizimini klinik tekshirish. Buyrak va siydik ajratish tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Meyordagi siydik tarkibi va uni turli kasalliklarda o'zgarishi. Umumiy tahlil uchun siydikni yig'ish qoidalari. Siydikning fizik xususiyatlarini aniqlash. Siydikni mikroskopik tekshirish, hosil bo'lgan cho'kma elementlari aniqlash. Siydikni kimyoviy tekshirish usullari. Proteinuriyalar, ularni kelib chiqish sabablari. Glyukozuriya (insulyar va ekstrainsulyar) va ularning klinik ahamiyati. Buyrakning o'tkir kasalliklarida siydikni klinik tekshirish. Siydikda qand, bilirubin, urobilin, atseton ajralish sabablari. Siydikning uyushgan va uyushmagan cho'kmalari. Buyrak funksiyasini Zimnitskiy, Addis-Kakovskiy va Nechiporenko usullarida tekshirishning diagnostik ahamiyati. Me'da - ichak kasalliklarini klinik tekshirish usullari. Me'daning sekretor vazifasi. Me'da suyuqligi tarkibi va uning diagnostik ahamiyati. Me'da suyuqligining fizik-kimyoviy xususiyatlarini tekshirish va uning diagnostik ahamiyati. Me'da shirasini yig'ish usullari. Me'da shirasini fraksion usulda tekshirish. Maxsus sinamalar uchun nonushtalar va ularni me'da sekretsiasiga ta'sir qilish xususiyatlari, me'da sekretsiasini maksimal stimulyatsiya qilish. Me'da suyuqligini mikroskopik tekshirish. Meyoriy najasning tarkibi, umumiy xossalari. Najasda qon, sterkobilin, bilirubinni aniqlash. Najasdagi yashirin qonni tekshirishda bemorni tayyorlashning ahamiyati. Najasda gijja tuxumlarini aniqlash. Najas tarkibini mikroskopik tekshirishning diagnostik ahamiyati. Kattalar va bolalarda meyoriy koprogramma hamda patologik holatlardagi mikroskopik manzarani aniqlash. Orqa miya suyuqligi (likvor) ni hosil bo'lishi, uning fiziologik ahamiyati, harakatlanishi va gematoensefalik to'siq (baryer) to'g'risida umumiy tushuncha. Bosh miya to'qimasi va pardalari, ularda ko'p uchraydigan kasalliklari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar. Orqa miya suyuqligining bosimi, likvorni olish usullari: lyumbal, sisternal, ventrikulyar punksiyalar haqida tushuncha. Likvorning fizik va kimyoviy xossalari. Likvorning rangi, tiniqligi, solishtirma og'irligi, oqsil, qand va xloridlarni aniqlash. Likvorni mikroskopik tekshiruvini o'tkazish. Likvor tarkibida limfotsitlar, monotsitlar, neytrofillar, zozinofillar, plazmatik hujayralar, makrofaglar, donador sharlar, semiz hujayralar, araxnoendoteliy va epindema hujayralarini aniqlash. Markaziy nerv sistemasining yallig'lanish, o'sma va boshqa kasalliklarini laborator diagnostikasi. Pandi va Nonne-Apelt reaksiyalarini bajarish tartibi, ularning diagnostik ahamiyati. Qand va xloridlar miqdorining o'zgarishini diagnostik ahamiyati. Differensial kolloid reaksiyalar. Sitoz, poykilotsitoz haqidatushunchalar. Orqa miya suyuqligida streptokokk, meningokokk va sil mikobakteriyasini aniqlash. Seroz bo'shliqlarida suyuqliklarning paydo bo'lish sabablari, ularning tasnifi, umumiy xossalari va ularning tarkibi. Plevral, perikardial, peritonial suyuqliklarning hosil bo'lish mexanizmi. Ekssudat va transsudatlardan tekshiruv materialini olish. Sizib chiqqan suyuqliklarning xossalari (rangi, tiniqligi, solishtirma og'irligi). Seroz suyuqliklarda oqsil miqdorini aniqlash. Rivald reaksiyasini o'tkazish tartibi. Ekssudat va transsudatlarning hujayraviy tarkibi (neytrofillar, leykotsitlar, monotsitlar, makrofaglar, mezotoliy xujayralari, o'sma elementlari) va xujayrasiz elementlari. Psamomlar, xolesterin va kristallar. Plevra, qorin parda va haltali o'smalardan olinadigan suyuqliklarning fizik-kimyoviy, mikroskopik tekshirish turlari haqida tushuncha. Ekssudatning turlari. Ekssudat va transsudatni bir biridan farqi. Balg'amning hosil bo'lishi va uning tarkibi. Balg'amni yig'ish qoidalari. Balg'amning fizikaviy xossalari: miqdori, hidi, rangi, konsistensiyasi, shaklli va patologik aralashmalari va zarralari. Balg'amning morfologik elementlari leykotsitlar (neytrofillar, eozinofinlar), eritrotsitlar, epiteliy hujayralari (alveolyar, silindrik,

yassi, hilpillovchi). Elastik to‘qima tolalari, korallsimon to‘qimalar, ohaklashgan elastik to‘qimalari; fibrin, Kurshmann spirallari, aktinomitsetlar to‘pchalari, exinokokk elementlari, Sharko-Leyden kristallari, xolesterin, gemantoidin, Ditrix probkalari (tiqinlari), guruchsimon donador, chekim-chekim hujayralar. Balg‘amni boyitish (flotatsiya) usuli. O‘tkir va surunkali bronxit, bronxial astma, bronxoektaziya, krupoz pnevmoniya va o‘pka absessida balg‘amning ko‘rinishi, tarkibi. Sil kasalligi va uni oldini olishda balg‘amni tekshirishning diagnostik ahamiyati.

2.4. Modul. Virusologiyada laborator tekshirish usullari.

Infeksiya haqida ma‘lumot, immunitet haqida tushuncha. Virusologik kasalliklarni turlarini, yuqish yo‘llari va tekshirish usullarini o‘rganish.

Virusli va bakterial infeksiyalar: toksoplazmoz, zaxm, sil, xlamidioz, enterovirusli infeksiyalar, so‘zak, listerioz, mikoplazmoz, gepatit V, herpes virusi, SMV, immunodefitsit virusi, qizilcha virusi, odam papilloma virusi, parvovirus, qizamiq, epidemik parotit va suvchechak kasalliklari haqida tushuncha. Virusli va bakterial infeksiyalarni zamonaviy laborator diagnostika usullari. Zaxm, sil, xlamidioz, enterovirusli infeksiyalar, so‘zak, listerioz, gepatit A,V,S, immunodefitsit virusi, qizilcha virusi, odam papilloma virusi, parvovirus, qizamiq, epidemik parotit va suvchechakda laborator tekshirish usullari haqida ma‘lumot. Virusli va bakteriyali infeksiyalar, OIV/OITS ni aniqlash uchun qon olish. Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarni aniqlash uchun homilador ayolni tashqi jinsiy a‘zolaridan surtma olish. Virusli infeksiyalarni aniqlashda qo‘llaniladigan PZR reaksiyasi, reaktivlarni tayyorlash, natijalarni baholash. OIV, gripp, adenovirusli infeksiyalar, koronavirus, herpes va SMV ni aniqlashda PZR ning ahamiyati. Virusli infeksiyalarni aniqlashda qondagi antitelolar, immunoglobulinlarni aniqlash usullari, natijalarni baholash.

2.5. Modul. Teri-tanosil kasalliklarida laborator tekshirish usullari.

Dermatomikozlar klassifikatsiyasi. Kandikomikoz, aktinomikoz, epidermofitiya, parsha, mikrosporiya, trixofitiyalarning qisqacha xarakteristikasi. Zamburug‘li kasalliklarda tananing turli sohalaridan mikroskopik tekshirishlar uchun material olish, ularga ishlov berish va tahlil qilish. Zamburug‘li kasalliklarda tananing turli sohalaridan (sog‘lom tirnoq, teri, kipriklar va b.) mikroskopik tekshirishlar uchun material olish, ularga ishlov berish va preparat tayyorlash. Zamburug‘li kasalliklarni zamonaviy tashhisot va davolash usullari. Tanosil kasalliklarning turlari. Tanosil kasalliklarini aniqlashda qin surtmalarini tayyorlash, qinning tozalik darajasini aniqlash. Tuxumdonlar esterogen vazifasini aniqlash uchun qin suyuqligini sitologik tekshirishga material olish, preparatlar tayyorlash. Qin devorining ko‘p qavatli yassi epiteliysi xujayralarini bo‘yash usullari. Qin suyuqligidan preparatlar tayyorlash. Gematoksilin-eozin, fuksin, metilen ko‘ki bilan bo‘yash usullari. Zahm kasalligi. Kasallikning turli bosqichlarida klinik ko‘rinishi, alomatlarining qisqacha ta‘rifi. Zaxm kasalligining turli bosqichlarida laborator diagnostika usullari. Oqish spiroxetaning morfologik tuzilishi va biologiyasi. Oqish spiroxetani topish uchun materiallar olish, negativ va pozitiv bo‘yashlar. Qorong‘ilatilgan ko‘ruv maydonda mikroskopiya o‘tkazish. Immunoflyuoressensiya qilish reaksiyalari. Negativ va pozitiv bo‘yashlar. Qorong‘ilatilgan ko‘rish maydonida mikroskopiya o‘tkazish. So‘zak (gonoreya) kasalligi to‘g‘risida tushuncha. Kasallik qo‘zg‘atuvchisining tuzilishi, morfologiyasi va biologiyasi. Yuqish yo‘llari. So‘zakni erkaklarda, ayollarda va bolalarda kechish xususiyatlari. Tekshirish uchun material olish qoidalari, bo‘yash usullari, mikroskopik ko‘rinishi.

Trixomoniaz kasalligi haqida umumiy ma‘lumot. Trixomanada qo‘zgatuvchisi, uning morfologiyasi va biologiyasi, yuqish yo‘llari, erkak va ayollardan kasallikning klinik alomatlariga ko‘ra material olish usullari. Nativ preparatlar va surtmalarni tayyorlash, ularda trixomanada qo‘zgatuvchisini aniqlash. Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarini zamonaviy tashhisot va davolash usullari.

2.6. Modul. Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari.

Biokimyo va biokimyo tekshirish usullari fani haqida qisqacha ma‘lumot. Hujayra va uning tuzilishi. Hujayralar va odam organizmida moddalar almashinuvi to‘g‘risida tushuncha, moddalar almashinuvining boshqarilishi, har xil turdagi moddalar almashinuvining o‘zaro bog‘liqligi. Oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, ularning organizmdagi roli. sintezi, tuzilishi, klassifikatsiyasi. Fermentlar, fermentlar to‘g‘risida umumiy tushuncha. Fermentlarning ta‘sir mexanizmi va klassifikatsiyasi. Fermentlarning odam organizmida tutgan o‘rni, xossalari tuzilishi. Har xil patologik holatlarda fermentlarni aniqlashning klinik-diagnostik ahamiyati. Gormonlar, gormonlarning organizmdagi roli. sintezi, tuzilishi, klassifikatsiyasi. Gormonlarning moddalar almashinuviga boshqaruv (regulyator) ta‘siri. Gipofiz, me‘da osti bezi, buyrak usti, qalqonsimon va qalqonsimon orti bezi, jinsiy gormonlar gormonlarining vazifalari. Biokimyo analizlari. Qon zardobini ajratib olish. Biokimyo laboratoriyasining jihozlanishi, laborantning vazifasi va texnika xavfsizligi qoidalari o‘rganish. Laboratoriya idishlari: o‘lchov, umumiy va maxsus mo‘ljallangan idishlar, kimyoviy reaktivlar klassifikatsiyasi, saqlash, tozalash

usullari. Miqdoriy analiz to'g'risida tushuncha. Miqdoriy analizlarning usullari. Taroz turlari. Torsion va analitik tarozlar bilan ishlash qoidalari. Hajmiy analiz. Eritmalar va ularning klassifikatsiyasi. Eritmalarning konsentratsiyalarini ifodalash. Foizli (protsentli) eritmalar tayyorlash qoidalari. Eritmalarni titrlash. Molyar, normal (meyoridagi), empirik eritmalar, ularni tayyorlash prinsiplari. Hajmiy analiz usullari. Hajmiy-analitik aniqlashlardagi hisob. Neytralizatsiya reaksiyalari, cho'ktirish. OksidoreduktometriY. Eritmaning titrini topish, to'g'rilash koeffitsentini aniqlash. Adsorbsion fotometriya usuli. FotoelektrokolorimetriY. Fotoelektrokolorimetrlar (FEK) va spektrofotometr (SF) larninghar xil markalari, ularda ishlash prinsiplari. Kalibrovkali egri chiziq va jadvallarni tuzish asoslari. Qon zardobini ajratib olish. Qon zardobidagi oqsil miqdorining tekshirish usullarini qo'llash. oqsil almashinuvini tekshirish usullari. Biuret usuli bilan umumiy oqsilni elektroforez usuli bilan oqsil fraksiyalarini qog'ozda, aniqlash. Mochevina va kreatinning aniqlash usullarini qo'llash. Qoldiq azotni unifitsirlangan usul bilan, tiomochevina, kreatininni cho'ktirish sinamali vositasida aniqlash. Timol, sulema, veltman sinamasini o'tkazish. Qon zardobida bilirubin, gemoglobin, siydik kislotani aniqlash. Qon zardobi va siydikda amilaza aktivligini aniqlash. AIAT va AsAT fermentlarning aktivligini aniqlash. Qon zardobidagi ishqoriy fosfataza faolligini aniqlash. Qon zardobida gormonlarni aniqlash usullarini (IFA) qo'llash. Qondagi glyukoza miqdorini fermentativ usul bilan aniqlash. Qondagi glyukoza miqdorini yuklama berish usullari bilan aniqlash, glyukoza miqdorini ekspres usulida aniqlash. Qondagi glyukozani "optima" va "hospitex diagnostix" analizatorida tekshirish hamda ortotoluidin uslubi bilan aniqlash. Siydikdagi qandni ekspres indikator-testlar bilan aniqlash. Siydikda oqsil miqdorini aniqlash. Lipid almashinuvini tekshirish usullar. Triglitseridlarni fermentativ usulda aniqlash. Qondagi xolesterin miqdorini fermentativ, Ik usullarida va analizatorlarda aniqlash. Xolesterinni «optima» va «hospitex diagnostix» analizatorida tekshirish. Past va yuqori zichlikdagi lipoproteidlarni aniqlash usullari. Jigar sinamalarini tekshirishni qon zardobida kalsiy, natriy, kaliy, fosfor, temir, xlor ionlarini aniqlash. Koagulogrammani aniqlash. Qon ivish vaqti, fibrinogen miqdori, protrombin indeksi, trombotest, plazmaning rekalsifikatsiya vaqtini aniqlash. Revmatologik tekshirish usullarini qo'llash.

2.7. Modul. Bakteriologiyada laborator tekshirish usullari.

Bakteriologik laboratoriyalarda ishlash tartibi va qoidalari. Bakteriologik tekshirish usullari. Mikroorganizmlar morfologiyasi, fiziologiyasi va genetikasi, bakteriyalarning tuzilishi. Mikroorganizmlarning asosiy turlari. Mikroorganizmlarga atrof muhit sharoitining ta'siri. Aseptika, antiseptika va sterilizatsiya usullarini o'ziga xos xususiyatlari. Mikroorganizmlarning turli oilalarga va turlariga nisbatan muhit retseptlari va muhitlarni tayyorlash, dezinfektantlar va antiseptiklarni nazorat etish usullari. Laboratoriyalarning asosiy turlari, ularda bajariladigan ishlar, mikroorganizmlarning sun'iy o'stirishning asosiy qonun qoidalari, ularning o'zgaruvchanligi va genetik vositani tashkil etilishi asoslari. Infeksiya haqida ma'lumot, immunitet haqida tushuncha, patogen kokklar keltirib chiqaradigan kasalliklar, ularni aniqlash usullari, yuqumli kasalliklar profilaktikasi. Reaktiv bo'yoqlarni tayyorlash, saqlash usullari. Mikroskop bilan ishlash, texnika havfsizligi qoidalarga rioya qilish, yuqumli material bilan ishlash qoidalari. Aseptika va antiseptika qoidalarga rioya qilish. Yuqumli material bilan ishlash qoidalari. Tekshiriladigan materiallarni tahlil qilish, tekshirish texnikasiga rioya qilish, tekshirish materialini ozuqa muhitlarga ekish va sof kulturani ajratib olish. Biologik suyuqliklarda serologik usullarda antigen va antitelolarini aniqlash. Mikroorganizmlarni antibiotikka sezuvchanligini aniqlash. Bemordan tashxis uchun tekshirish materialini yig'ishva ro'yhatga olish, patologik materiallardan surtma tayyorlash, fiksatsiya qilish, oddiy va murakkab usullarda bo'yash. Preparatlarni mikroskopda tekshirish. Ozuqa muhitlarni tayyorlash, materialni ozuqa muhitlariga ekish, o'stirish. Termostatda ishlash qoidalari. Mikrob koloniyalarini kuzatish, antibiotikka sezuvchanligini aniqlash, natijalarni baholash. Qonga ishlov berish va uning tarkibiy qismlarini ajratib olish. Bakteriologik laboratoriyaning sanitariya holatini nazorat qilish va ish joyini tashkil qilish, epidemiyaga va texnika havfsizligiga oid qonun va qoidalarga rioya qilish. Laboratoriya jihozlari, reaktivlar bilan ishlash. Dezinfeksiya va sterilizatsiyalash usullarini amalga oshirish. Mikrob kulturasini bakteriofagga sezuvchanligini sifat va miqdorini aniqlash.

2.8. Modul. Parazitologiyada laborator tekshirish usullari.

Inson organizmida parazit hayot kechiruvchi gelmentlar (gijjalalar), ularning yuqish yo'llari, patologik ta'sir qilish mexanizmi, reflektor, toksik ta'siri. Gijjalarning tarqalishi, bio va geogelmintlar haqida ma'lumot. Gijjalarning klassifikatsiyasi. Nematodalar, sestodalar, trematodalarning o'ziga xos xususiyatlari. Gijjalarning rivojlanish sikli, asosiy va oraliq xo'jayinlar. Nematodalar guruhiga kiruvchi ostritsalar, askaridalar, vlasoglav, ankilostomalalar, trixinellalar morfologiyasi, rivojlanish sikli, tuxumlarining ko'rinishi, turlari epidemiologiyasi, profilaktikasi va klinikasi. Nematodalarning diagnostikasida laboratoriya usullarining ahamiyati. Sestodalar (keng lentetslar, sistitserkoz, pakana gijja

(karlikoviy sepen), exinokokklar) xususiyatlari, oraliq xo'jayinlari, tuxumlari morfologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi va profilaktikasi. Trematodalarning laborator diagnostikasi. Gelmintozlar bilan kurashish. Gelmintlarni tekshirish uchun material yig'ish, nativ preparatlarni, lyugol va eozinli preparatlarni tayyorlash, mikroskopik tekshirish. Gijja tuxumlari morfologiyasini aniqlash. Materialni boyitish usullari: cho'ktirish usuli, zakrutka qilish usullari haqida ma'lumot. Preparatlarni tahlil qilish. Balantidioz, uning morfologiyasi, klinik ko'rinishi, tekshirish usullari. Lyambliyalarning morfologiyasi va patologiyasi to'g'risida tushuncha. O'n ikki barmoqli ichak shirasidan lyambliyalarning vegetativ shakli bilan tayyorlangan preparatlarni ko'rish. Ichakning sodda jonivorlar bilan kasallanishi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Amyoba dizenteriyasining ichak dizenteriyasidan farqi. Najasni tekshirish usullari. Najasdan nativ pereparat hamda lyugol suyuqligi bilan preparat tayyorlash. Dizenteriya tayoqchasi va ichak amyobasi bilan preparatlarning mikroskopiyasi. Gijjalarga tekshirish uchun materiallar olish, nativ material tayyorlash, preparatlarni mikroskopiyasi va gijja tuxumlarini ko'rish. Najasni fyullerborn va kalantaryan bo'yicha ishlash. Materialni boyitish usullari (cho'ktirish usuli, zakrutka qilish usuli) preparatlarni namoyish qilish.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yhati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari. Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom, jihozlar, tarqatma materiallar, nazorat savollarining elektron ko'rinishi – 30 ta, vaziyatli masalalar- 30 ta va test savollari 300 ta, imtihon biletleri - 25 ta. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI:

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 7-dekabrda 2019- 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risidagi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyovning 2020-yil 12-noyabrdagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora – tadbirlari tug'risidagi farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 12-noyabrdagi Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora- tadbirlari to'g'risidagi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga karshi kurashish tug'risida"gi qonuni. 2017 yil 3 yanvar.
8. SanQvaM № 0161- 04 "O'zbekiston Respublikasi xududini odamlar uchun xavfli bo'lgan karantin va boshqa yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishidan muxofaza qilish".
9. O'zbekiston Respublikasi SSV ning 23 yanvar 2015 yil "Respublikada aholi o'rtasida o'ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish" to'g'risidagi №37 buyrug'i.
10. O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyenik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19.

4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Aripov M., Begalov V., Begimqulov U., MamarajabovM. "Axborot texnologiyalari" Toshkent. Noshir, 2009 y.
2. Zakirova F. "Informatika i informatsionniye texnologii" T.Aloqachi, 2007 y.
3. Irgashev SH.B. "Valeologicheskiye prinsipi ratsionalnogo pitaniya" Tashkent.
4. Irgashev SH.B., "Meditsinskaya Valeologiya". Toshkent- 2012g.

5. M.T.Abdurahimova “Ingliz Tili” (Tibbiyot o‘quvchilari uchun).
6. M.Gaffarov “Ingliz tili grammatikasi”.
7. English Matters English-Uzbek English Dictionary, Mac Milan.
8. New Inside Out Ceria Jones , Jon Hard , Phillip Kerr , Macmillan A1 - C1.
9. Macmillan English Grammar in Context , Michael Vince , Macmillan dasturiy ta‘minoti”, Toshkent Mehnat -2000 yil
10. “VICH – infeksiya” Pod redaksiyey AN RUz Daminova.T.A Tashkent – 2010g.
11. “Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv dasturi” qo‘llanma, 2014y.
12. “Tibbiy anjom-asboblari va buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari”.
13. Y.Allayorov Y.Tojiboyev “Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari”.

4.3.2. Tavsia etilgan adabiyotlar:

1. A.B.Ganixojayeva, X.A.Nazarova. «Mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziyoy» nashriyoti, 2014 yil.
2. Nazirova D.R. “Bioximiya i bioximicheskiye metodi issledovaniya” Toshkent, o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 2013yil
3. A.B.Ganixojayeva, X.A.Nazarova. «Mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziyoy» nashriyoti, 2013 yil.
4. Xoshimova M.A. “Biokimyoy va biokimyoviy tekshirish usullari” Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012 yil
5. E.E.Eshboyev «Mikrobiologiyadan amaliy mashg‘ulotlar» Toshkent, «Ilm Ziyoy» nashriyoti, 2011 yil
6. Aripova G.S, Po‘latova F.G, Nazarova N.S, Toirova Z.S. “Klinik va biokimyoviy tekshirish usullari” Toshkent, “G‘afur G‘ulom”, 2007y.
7. G.S.Aripova, N. S. Nazarova «Klinik laboratoriya tekshiruv usullari» Toshkent, «Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti», 2007 yil.
8. Fayziyev Y.M., Fayziyeva X.A. “Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya» Toshkent, “Ilm ziyoy” nashriyoti, 2007 yil
9. Bo‘ronov M.A, Mirjonov K.M. “Tibbiyot parazitologiyasi va epidemiologiya asoslari”. Toshkent, “Ilm ziyoy” nashriyoti, 2004 yil
10. V.YE.Avakov O.V.Churilova A.M.Sharipov “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.
11. Y.Allayorov Y.Tojiboyev “Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”

4.3.3. Elektron ta‘lim resurslari.

O‘zROliyavo‘rtamaxsusta‘limvazirligi – www.edu.uz
 O‘zRSog‘liqnisaqlashvazirligi - www.minzdrav.uz
 Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>
 Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>
 Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>

5. YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar, o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta‘lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom” asosida o‘tkaziladi.